



# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **7 621** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **22** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **7 599** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **7 703,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **104,9** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **537,2** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **110,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **7 097,5** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **104,5** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 100,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **102,2** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>7 634,7</b>	<b>104,9</b>
Andijon sh.	2 191,0	109,8
Xonobod sh.	77,4	101,7
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	318,0	109,5
Andijon	501,5	100,2
Baliqchi	490,4	100,9
Bo'ston	116,4	108,4
Buloqboshi	239,7	101,4
Jalaquduq	253,4	111,3
Izboskan	264,8	104,3
Ulug'nor	102,0	102,5
Qo'rg'ontepa	491,1	102,0
Asaka	634,3	100,5
Marhamat	345,4	100,6
Shahrixon	971,7	103,5
Paxtaobod	337,7	100,2
Xo'jaobod	299,9	110,4

2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**9,8** %), Oltinko'l (**9,5** %), Xo'jaobod (**10,4** %) va Jalaquduq (**11,3** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.






## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI




### Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi (yanvar-may)




So'nggi **5 yillikda** (2019– 2023 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **112,1 %** ni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –may oyi)



2023- yilning yanvar-may oyida o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **28,7 %** bilan **2 191,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,0 %** bilan **77,4** mlrd so'mni tashkil etdi.


Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **7 097,5** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **4,5 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,0 %** ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **10,8 %** ga o'sdi va **537,2** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Andijon viloyati	<b>7.0</b>	<b>93.0</b>
Andijon sh.	<b>16.5</b>	<b>8...</b>
Xonobod sh.	<b>4.5</b>	<b>95.5</b>
Oltinko'l	<b>4.5</b>	<b>95.5</b>
Andijon	<b>7.0</b>	<b>93.0</b>
Baliqchi	<b>4.1</b>	<b>95.9</b>
Bo'ston	<b>6.8</b>	<b>93.2</b>
Buloqbooshi	<b>1.4</b>	<b>98.6</b>
Jalaquduq	<b>7.3</b>	<b>92.7</b>
Izboskan	<b>2.6</b>	<b>97.4</b>
Ulug'nor	<b>0.9</b>	<b>99.1</b>
Qo'rg'ontepa	<b>1.0</b>	<b>99.0</b>
Asaka	<b>3.6</b>	<b>96.4</b>
Marhamat	<b>2.1</b>	<b>97.9</b>
Shahrixon	<b>1.3</b>	<b>98.7</b>
Paxtaobod	<b>2.7</b>	<b>97.3</b>
Xo'jaobod	<b>2.6</b>	<b>97.4</b>

■ **Yirik korxonalar**      ■ **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik**

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,1 %**), Qo'rg'ontepa (**99,0 %**), Shahrixon (**98,7 %**) va Buloqbooshi (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,5 %**), Jalaquduq (**7,3 %**), Andijon (**7,0 %**) va Bo'ston (**6,8 %**) tumanlarida kuzatildi.



## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 292,4</b>	<b>102,7</b>
Andijon shahar	4 668,7	107,6
Xonobod shahar	1 715,7	99,5
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	1 677,9	107,0
Andijon	1 786,8	98,0
Baliqchi	2 315,3	98,8
Bo'ston	1 523,3	106,2
Buloqboshi	1 595,8	99,5
Jalaquduq	1 295,5	109,2
Izboskan	1 055,3	102,2
Ulug'nor	1 616,6	100,5
Qo'rg'ontepa	2 168,3	100,3
Asaka	1 821,2	98,3
Marhamat	1 888,3	98,6
Shahrixon	3 056,6	101,1
Paxtaobod	1 650,0	98,1
Xo'jaobod	2 552,1	107,6

2023- yilning yanvar-may oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 292,4** ming so'mni (2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **102,7** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**4 668,7** ming so'm), Shahrixon (**3 056,6** ming so'm) va Xo'jaobod (**2 552,1** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 100,8** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **102,2 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **477,1** mlrd so'mni (**129,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **623,7** mlrd so'mni tashkil etdi (**95,8 %**).

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (yanvar-may, foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.



## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 100,8</b>	<b>102,2</b>
Andijon shahar	266,8	124,2
Xonobod shahar	1,9	61,3
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	22,2	143,1
Andijon	36,8	85,3
Baliqchi	60,7	82,4
Bo'ston	12,9	186,0
Buloqboshi	39,4	99,4
Jalaquduq	34,5	152,0
Izboskan	10,8	110,1
Ulug'nor	40,5	104,2
Qo'rg'ontepa	38,5	142,3
Asaka	108,6	95,7
Marhamat	55,2	76,6
Shahrixon	222,5	103,6
Paxtaobod	94,7	84,0
Xo'jaobod	54,6	79,8

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023- yilning yanvar-may oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **477,1** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**162,7** mlrd so'm) to'g'ri keldi.











Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mlrd so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>162,7</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>141,2</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>61,9</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>19,5</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>20,3</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>12,0</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>14,9</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</b>	<b>2,6</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>20,1</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>11,8</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>4,9</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>3,8</b>





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-may oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **623,7** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **528,9** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar – **85,1** mlrd so‘mni, otlar – **5,0** mlrd so‘mni, parrandalar – **4,6** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrd so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	308,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	131,3
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	88,9
	Qo‘ylar	83,0
	Otlar	5,0
	Echkilar	2,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	2,9
	Tovuqlar	1,3
	Quyionlar	0,3
	Qushlar	0,2

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 316** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 315** tani tashkil qildi.


	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>141,6</b>	<b>104,0</b>
Andijon shahar	62,9	107,0
Xonobod shahar	1,8	104,8
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	7,0	101,6
Andijon	11,1	101,9
Baliqchi	2,8	100,8
Bo'ston	3,5	101,4
Buloqbo'shi	1,2	102,6
Jalaquduq	2,9	102,9
Izboskan	4,1	101,5
Ulug'nor	1,6	101,4
Qo'rg'on-tepa	5,1	101,2
Asaka	6,2	101,1
Marhamat	4,5	102,9
Shahrixon	18,4	100,6
Paxtaobod	4,9	103,0
Xo'jaobod	3,5	103,6

2023- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **141,6** mlrd so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,0** % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **92,6** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **1 525,4** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,9** % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **648,1** mlrd so'm (o'sish sur'ati – **130,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **877,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati – **98,3** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd so'm	Ulushi, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 525,4</b>	<b>109,9</b>
Andijon shahar	954,8	117,5
Xonobod shahar	3,0	104,1
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	65,2	101,4
Andijon	62,8	101,6
Baliqchi	12,8	103,9
Bo'ston	2,8	104,1
Buloqboshi	7,7	104,1
Jalaquduq	9,4	103,7
Izboskan	9,0	104,0
Ulug'nor	2,0	104,1
Qo'rg'ontepa	36,4	102,8
Asaka	159,9	111,6
Marhamat	15,3	103,1
Shahrixon	36,1	103,8
Paxtaobod	9,7	103,9
Xo'jaobod	138,6	83,1

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**954,8** mlrd so'm), Asaka (**159,9** mlrd so'm) va Xo'jaobod (**138,6** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 322,3** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **6,4 %** ga o'sdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **2 122,6** mlrd so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,7 %** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Jalaquduq, Izboskan va Marhamat tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 845** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **11** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 834** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 322,3</b>	<b>106,4</b>
Andijon shahar	848,0	103,0
Xonobod shahar	10,8	101,9
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	133,9	126,3
Andijon	210,7	112,0
Baliqchi	155,4	103,8
Bo'ston	57,3	102,8
Buloqboshi	49,4	102,1
Jalaquduq	29,6	129,6
Izboskan	44,1	103,6
Ulug'nor	24,6	103,4
Qo'rg'ontepa	57,8	106,9
Asaka	72,7	106,1
Marhamat	40,0	115,2
Shahrixon	518,2	103,9
Paxtaobod	40,4	103,3
Xo'jaobod	29,5	177,7



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel: 74 228-30-57**